



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

GORIZONTAL TAKROR VA UNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATI

Saminov Abdumalik Inomjonovich

Fargʻona davlat universiteti, dotsent

Mamadaminova Durdona Muxamaddazim qizi

Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada takror hodisasining muhim koʻrinishlaridan biri boʻlgan gorizontal takrorning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Gorizontal takrorning badiiy matndagi struktur-semantik va lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning emotsional-ekspressiv maʼno hosil qilish, muallif munosabatini ifodalash, qahramonlarning ruhiy holatini yoritish hamda matnning pragmatik taʼsirchanligini kuchaytirishdagi oʻrni yoritiladi. Tadqiqot natijalari gorizontal takrorning badiiy nutqning estetik taʼsirchanligini oshirish va matn mazmunini yanada chuqurroq ochib berishda muhim stilistik vosita sifatida xizmat qilishini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: takror, gorizontal takror, stilistik vosita, lingvopoetika, badiiy matn, ekspressivlik, pragmatika, semantika.

ГОРИЗОНТАЛЬНЫЙ ПОВТОР И ЕГО ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Саминов Абдумалик Иномжонович

Ферганский государственный университет, доцент

Мамадаминова Дурдона Мухаммадазим кизи

Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье исследуются лингвистические особенности горизонтального повтора как одного из важных проявлений явления повтора. Анализируются структурно-семантические и лингвопоэтические возможности горизонтального повтора в художественном тексте. Особое внимание уделяется его роли в создании эмоционально-экспрессивного значения, выражении авторской позиции, раскрытии психологического состояния персонажей и усилении прагматического воздействия текста. Результаты исследования показывают, что горизонтальный повтор выступает важным стилистическим средством, способствующим повышению эстетической выразительности художественной речи и более глубокому раскрытию содержания произведения.

Ключевые слова: повтор, горизонтальный повтор, стилистическое средство, лингвопоэтика, художественный текст, экспрессивность, прагматика, семантика.

HORIZONTAL REPETITION AND ITS LINGUOPOETHIC CHARACTERISTICS

Saminov Abdumalik Inomjonovich

Fergana State University, Associate Professor

Mamadaminova Durdona Muxamaddazim qizi

Fergana State University, Master's Student

Abstract

This article investigates the linguistic features of horizontal repetition as one of the significant manifestations of repetition. It analyzes the structural-semantic and linguopoetic potential of horizontal repetition in literary texts. Particular attention is paid to its role in creating emotional and expressive meanings, conveying the author's attitude, revealing the psychological state of characters, and enhancing the pragmatic impact of the text. The findings demonstrate that horizontal repetition functions as an important stylistic device that increases the aesthetic expressiveness of literary discourse and contributes to a deeper understanding of textual meaning.

Keywords: repetition, horizontal repetition, stylistic device, linguopoetics, literary text, expressiveness, pragmatics, semantics.

Tilning badiiylik jihatdan boyligi uning ifoda vositalariga bogʻliq. Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga oʻquvchining diqqatini tortish, uni boʻrttirib koʻrsatish va taʼsir kuchini oshirish uchun turli xil sintaktik-stilistik vositalardan foydalanadilar. Badiiy nutqda eng koʻp qoʻllaniladigan sintaktik-stilistik vositalardan biri takror hisoblanadi. Takror soʻz yoki iboralarni aynan takrorlash orqali fikrning taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Bu usul yordamida muallif his-

tuyg'ularini chuqurroq ifodalaydi, tinglovchi yoki o'quvchi e'tiborini jalb qiladi hamda tasvir etilayotgan narsaga o'zining shaxsiy munosabatini bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Takror – badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o'z fikrining ta'sir kuchini oshirishga, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalashga erishadi. Takror badiiy adabiyotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik vosita turi bo'lib, so'z ustalari undan tasvir etilayotgan obyektga bo'lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o'quvchining diqqatini tortish uchun foydalanganlar [2]. Demak, badiiy matndagi har bir lingvistik vosita doimo biron bir vazifa bajaradi, ular shunchaki qo'llanilmaydi.

A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da takror ayni so'zning sintaktik birlik sifatida ikki va undan ortiq holda qo'llanilishi, takroriy so'z ayni so'zni takror holda qo'llash bilan tuzilib, ko'plik, davomiylik kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z, so'zning takroriy shakli sifatida talqin qilinadi [9]. Bundan ko'rinadiki, ustoz asosan takrorning tilning sintaktik sathiga doir tomonlariga e'tibor qaratganlar.

Dilmurod Qur'onov "Adabiyotshunoslik lug'ati"da takrorga quyidagicha ta'rif beradi: "Takror – matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn (va asar kompozitsion qurilishi)ga xos shunday usullarning umumiy nomi" [7]. Adabiyotshunos ustozimiz ushbu fikrlari orqali takrorning serqirra stilistik vosita ekanligiga ishora qilmoqda, chunki stilistik vositalar bilan ko'p shug'ullangan olim S.Karimov ham takrorning juda ko'plab turlari haqida fikrlar bildirgan.

"Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati"da esa takror hodisasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "U badiiy nutqqa xos kompozitsion-sintaktik ifoda usullaridan biri bo'lib, ayrim tovushlar, bir yoki bir necha so'z, so'z birikmalari, ba'zan esa butun satrning ataylab qayta qo'llanishi orqali fikr yoki hissiy holatni ifodalash, uning ta'sirchanligini kuchaytirish hamda turli intonatsion ohanglarni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan stilistik vosita sifatida talqin etiladi" [10]. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, lug'at mualliflari takrorning tilning barcha sathlari uchun birdek taalluqli ekanligini bildiradi.

S.Karimov birgina takrorning o'ttizga yaqin turi mavjudligi haqida quyidagilarni yozadi: "O'zining stilistik imkoniyatlarini chinakam ma'noda badiiy uslubda yuzaga chiqargani bois, adabiy asarlar matnida takrorning, masalan, alliteratsiya, anafora, akromonogramma (epanalipsis, epanafora, anadiplozis), antistrofa, antanaklasa, antonomaziya, antimetabola, assonans, bog'lam, dissonans, konsonans, metabola, naqarot, monorim, pleonazm, rifma, tautologiya, sharh, epifora, epistrofa, epanod, epanastrofa, qurshab olish, qaytalanish, halqa kabi turlari mavjud" [6].

Takror til tizimida eng faol va funksional stilistik hodisalardan biri hisoblanib, u nutqning semantik, ekspressiv hamda pragmatik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu hodisa badiiy adabiyot, publitsistika, og'zaki nutq, shuningdek, ayrim hollarda ilmiy matnlarda ham muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Takror orqali muallif yoki nutq subyeksi ma'lum bir g'oyani alohida ta'kidlash, axborotning muhim jihatini ajratib ko'rsatish, hissiy-ta'sirchanlikni kuchaytirish hamda matnning kompozitsion yaxlitligini ta'minlashga erishadi. Shu sababli takror masalasi lingvistik fanida uzoq vaqt davomida dolzarb tadqiqot obyekti sifatida qaralib kelinmoqda.

Takrorlarni qo'llanish usuliga ko'ra, gorizontaal va vertikal takror sifatida ikkiga bo'lish mumkin. Gorizontaal takror bir sodda gap doirasida qo'llanadi (masalan, O'qish, o'qish va yana o'qish; Student – student, o'quvchi – o'quvchi, o'sha gap – gap kabi). Vertikal takror esa qo'shma gaplarda, periodik nutq formasida, superfrazali sintaktik butunliklarda (сверхфразовое единство) qo'llanadi [8].

O'zbek tilining izohli lug'atida gorizontaal va vertikal so'zlariga quyidagicha ta'rif beriladi: Gorizontaal – ufq chizig'iga parallel to'g'ri chiziq; tik chiziqqa perpendikulyar chiziq. Vertikal – verticalis so'zi «osma», «tik» ma'nolarini anglatadi. Gorizontaal tekislikka nisbatan tik, osma holatda joylashgan [3].

Takror hodisasini qo'llanish usuliga ko'ra gorizontaal va vertikal turlarga ajratish uning nafaqat formal-strukturaviy, balki funksional-matniy xususiyatlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tasnif takrorning nutq qurilishidagi o'rni, sintaktik ko'lam va kompozitsion yuklamasini aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

NATIJASI VA MUHOKAMA

Gorizontaal takror, odatda, bir sodda gap yoki bir sintaktik konstruksiya doirasida yuzaga keladi. Bunda so'z, so'z birikmasi yoki gap bo'lagi aynan yoki qisman takrorlanib, fikrning ta'kidlanishi, emotsional-ekspressiv kuchaytirilishi hamda semantik urg'uning aniqlashtirilishiga xizmat qiladi. Gorizontaal takrorning asosiy belgisi – uning chiziqli xarakterga egaligidir, ya'ni takror bir sintaktik birlik ichida yonma-yon yoki yaqin pozitsiyada joylashadi. Natijada nutqning ritmikligi ortadi, mazmuniy markaz ajratib ko'rsatiladi va kommunikativ ta'sir kuchayadi. Bu turdagi takror ko'proq stilistik figura

sifatida namoyon bo‘lib, badiiy matnda obrazlilik va hissiylikni ta’minlaydi. Masalan:

Zulfiya Qurolboy qizining “Tafakkur” hikoyasidan olingan quyidagi parcha gorizontall takrorning semantik imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi:

“Xudo xohlasa, yaqin besh-olti yil ichida xo‘jaligimdagi odamlarning hammasida mana shunaqa dilbuzar bo‘ladi. Ungacha bola-chaqangiz bilan har zamonda bo‘lsa ham kelib dilbuzar ko‘rib keta bering. Bu matoh yeyilib qolarmidi!

Ko‘nglim bir gupirdi, bir gupirdi...” [5]

Mazkur parchada gorizontall takror asosan “Bir gupirdi, bir gupirdi” shaklida ifodalangan bo‘lib, u sintaktik jihatdan ketma-ket joylashgan bir xil birliklarning takrorlanishi orqali yuzaga kelgan. Ushbu takrorning semantik xususiyatlarini bir necha yo‘nalishda izohlash mumkin.

Birinchidan, takror harakatning intensivligini (kuchaytirilganligini) ifodalaydi. “Gupirdi” fe‘li odatda ichki kechinma, yurakning tez urishi yoki kutilmagan hissiy holatni bildiradi. Uning takrorlanishi esa bu holatning oddiy emas, balki kuchli, keskin va davomli kechinma ekanligini anglatadi. Demak, bu yerda takror semantik jihatdan gradatsiya (kuchaytirish) vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, mazkur takror emotsional-ekspressiv ma‘noni chuqurlashtiradi. Qahramonning ichki holati – hayajon, quvonch yoki hayrat kabi hissiyotlar oddiy bayon bilan emas, balki takror orqali kuchliroq ifodalanmoqda. Bu esa matnda yashirin emotsional qatlamni yuzaga chiqaradi. Takror natijasida nutq subyekting ruhiy holati o‘quvchi tomonidan aniqroq idrok etiladi.

Uchinchidan, “Bir gupirdi, bir gupirdi” shaklidagi takror davomiylik va takroriylik semasini yuzaga keltiradi. Ya‘ni harakat bir martalik emas, balki ketma-ket sodir bo‘layotgandek tasavvur uyg‘otadi. Bu esa vaqt davomiyliigi bilan bog‘liq semantik kengayishni ta’minlaydi.

“Kaftlarim toshga to‘la,
Otolmagan toshlarim...
Kimga otay? Kimga otay?
Ko‘zlarim yoshga to‘la
To‘kolmagan yoshlarim...
Kimga sotay? Kimga sotay?
Kiftlarim boshga to‘la
Do‘stdan qolgan boshlarim...
Qayga ketay? Qayga ketay?
Ko‘nglim quyoshga to‘la,
Zanjirband quyoshlarim...
Endi netay? Endi netay?” [1] (“O‘ttizinchi yillar”)

Quyida Eshqobil Shukurning “O‘ttizinchi yillar” she‘ridan olingan parcha asosida so‘roq gaplar shaklidagi gorizontall takrorlar berilgan.

Mazkur she‘riy parchada gorizontall takrorlar, asosan, so‘roq gaplar shaklida (“Kimga otay? Kimga otay?”, “Kimga sotay? Kimga sotay?”, “Qayga ketay? Qayga ketay?”, “Endi netay? Endi netay?”) ifodalangan bo‘lib, ular matnning asosiy semantik va emotsional yukini o‘zida mujassam etadi. Ushbu takrorlar badiiy nutqda shoirning ichki kechinmalari, ijtimoiy ruhiyati va tarixiy davrga munosabatini ochib beruvchi kuchli pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

Bunisini olib borsa, unisi... Jam bo‘lgan jamoat ichida yig‘lamagani qolmabdi. Podsho ikki oshnaga-da qoyil bo‘libdi. Har ikkovini-da ozod qilib yuboribdi.

– Ofarin, ofarin! – deya, boshini sarak-sarak qildi Mamat bobo.

– Qissadan hissa shulki, Bo‘riqul bilan Nasim ham shu kundan e‘tiboran xuddi o‘sha ikkoviday qiyomatli do‘st bo‘lsin...

Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan olingan parchada qo‘llangan “Ofarin, ofarin!” birliigi gorizontall takrorning yorqin va ta’sirchan namunasi sifatida e‘tiborni tortadi. Gorizontall takror badiiy matnda bir xil til unsurining bir sintaktik birlik doirasida yoki yonma-yon joylashgan nutq bo‘laklarida ketma-ket takrorlanishi orqali yuzaga keladigan stilistik hodisadir. Bunday takrorlar matnning oddiy axborot berish vazifasidan tashqari, uning emotsional, ekspressiv va estetik ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur misolda “ofarin” leksemasining ketma-ket takrorlanishi qahramon nutqidagi ijobiy munosabat, hayrat, mamnunlik va ruhiy ko‘tarinkilikni kuchaytirib ifodalagan.

“Ofarin” so‘zi o‘zbek tilida maqtov, rag‘bat, e‘tirof va qoniqish ma‘nolarini bildiruvchi emotsional-baholovchi birlik hisoblanadi. Ushbu leksemaning bir marta qo‘llanishi ham ijobiy bahoni anglatadi. Biroq uning “Ofarin, ofarin!” tarzida takrorlanishi oddiy maqtov doirasidan chiqib, qahramonning ichki kechinmasi, samimiy quvonchi va tasdiqlovchi munosabatini yanada kuchliroq

namoyon etadi. Demak, bu o'rinda takror faqat grammatik qurilish emas, balki qahramon ruhiy holatini ochuvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Gorizental takrorning asosiy xususiyati shundaki, u matn ichida ma'lum bir so'z yoki iborani alohida semantik markazga aylantiradi. "Ofarin, ofarin!" birligida aynan "ofarin" so'zining takrorlanishi o'quvchi e'tiborini qahramonning baholovchi munosabatiga qaratadi. Natijada nutqning mazmuniy markazi maqtov va rag'bat g'oyasi atrofida jamlanadi. Bu esa badiiy matnda qahramonlar o'rtasidagi munosabat, voqea-hodisaga berilayotgan baho va muallif yaratgan emotsional muhitni aniqroq his qilish imkonini beradi.

Tog'ay Murod ijodida takrorlar ko'pincha qahramon ruhiyatini ochish, xalqona tafakkur tarzini ifodalash, nutqning tabiiyligini ta'minlash va voqelikning badiiy ta'sirchanligini kuchaytirish uchun qo'llanadi. "Ofarin, ofarin!" misolida ham takror orqali qahramonning ichki olami, uning ruhiy ko'tarinkiligi va voqega nisbatan ijobiy munosabati aniq seziladi. Bu esa yozuvchi uslubida takrorlarning sintaktik qurilma bo'lish bilan cheklanmasdan, chuqur semantik va estetik vazifa bajarishini ko'rsatadi.

Takror hodisasi umuman tilning eng qadimiy va sarmahsul stilistik vositalaridan biri bo'lib, u badiiy matnning mazmuniy, emotsional hamda pragmatik ta'sirchanligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, gorizental takror badiiy nutqda obrazlilikni kuchaytirish, fikrni urg'ulash, ma'lum bir hissiy holatni ajratib ko'rsatish va o'quvchining diqqatini muhim semantik birlikka qaratish imkonini beradi. Shu jihatdan u badiiy matnning ichki ritmi, ohangi va kommunikativ yo'nalishini belgilovchi muhim vositalardan biridir.

Tadqiqot jarayonida gorizental takrorning struktur-semantik xususiyatlari, uning badiiy matndagi lingvopoetik imkoniyatlari hamda kommunikativ vazifalari tahlil qilindi. Natijada gorizental takror bir sintaktik birlik doirasida yoki yonma-yon joylashgan nutq bo'laklarida takror qo'llanib, matnning semantik markazini ajratib ko'rsatishi aniqlandi. Bunday takrorlar faqat shakliy takrorlanish emas, balki mazmuniy kuchaytirish, emotsional urg'u berish va obrazli ifodani chuqurlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, "Ofarin, ofarin!" birligi Tog'ay Murod badiiy nutqida takrorlarning ekspressiv imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ushbu birlik qahramon nutqiga emotsional kuch beradi, uning baholovchi munosabatini aniqlashtiradi va matnning umumiy badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Demak, gorizental takror Tog'ay Murod uslubida nafaqat nutqiy ifoda vositasi, balki obraz yaratish, ruhiy holatni ochish va matnning lingvopoetik yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim badiiy-estetik unsur hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, gorizental takror badiiy matnda faqat grammatik yoki sintaktik hodisa sifatida emas, balki muhim lingvopoetik vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. U orqali muallif tasvirlanayotgan voqea-hodisaga nisbatan o'z munosabatini ifodalaydi, qahramonlarning ruhiy holati va ichki kechinmalarini yanada ta'sirchan tasvirlaydi. Ayniqsa, takror vositasida quvonch, hayrat, iztirob, qo'rquv, ikkilanish kabi hissiy holatlar kuchaytirilgan holda ifodalanadi. Shu jihatdan gorizental takror matnning ekspressivligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim usullardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 49.
2. Mamajonov A., Roziqova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari: darslik. – Farg'ona, 2024. – B. 22.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2–5-jildlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 238–691.
4. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 27.
5. Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B. 90.
6. Karimov S. O'zbek tilining fonetik stilistikasi: monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2016. – B. 78–79.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B. 307.
8. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. – Toshkent, 1990. – B. 19.
9. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 101.
10. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B. 235.